

Mavjud ijobiy siljishlarga qaramay, mamlakatimizda ESG tamoyillarini moliya bozoriga tizimli integratsiyalash jarayonida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Birinchiidan, yashil faoliyatlar bo'yicha yagona milliy tasnifnoma (taxonomy) mavjud emas. Bu holat investorlar va emitentlar uchun aniqlikni kamaytirib, "soxta yashillik" xavfini kuchaytiradi.

Ikkinchiidan, ESG bo'yicha moliyaviy bo'lmagan oshkoralik (hisobot) majburiy tartibda joriy etilmagan. Amaldagi axborotlar asosan SDG obligatsiyalari doiraviy hujjatlari yoki alohida banklarning barqaror moliyalashtirish siyosatlariga tayanadi. Natijada bozor bo'ylab ESG ma'lumotlari sifati va qamrovi bir xil emas.

Uchinchiidan, ekologik va ijtimoiy xatarlarni baholash hamda fiskal xatarlarni boshqarish bo'yicha ESG kompetensiyalari regulyatorlar va moliya institutlari faoliyatiga yetarli darajada integratsiya qilinmagan. International Monetary Fund iqlim va ESG xatarlarini fiskal siyosat hamda prudensial nazoratga kiritishni tavsiya qilsa-da, O'zbekistonda bu yo'nalish hozircha konseptual bosqichda qolmoqda⁴⁷.

To'rtinchiidan, yashil loyihalar portfeli hamda ikkilamchi bozordagi likvidlik cheklangan bo'lib, bu yashil obligatsiyalar bo'yicha barqaror narxlash mexanizmlarining shakllanishini sekinlashtirmoqda⁴⁸.

Beshinchiidan, davlat siyosati instrumentlari — soliq va bojxona rag'batlari, davlat kafolatlari, subsidiyalangan kredit liniyalari hamda davlat xaridlarida yashil mezonlar — yagona tizimli arxitektura sifatida bog'lanmagan. OECD tavsiyalariga ko'ra, aynan davlatning katalitik (boshlovchi) investitsiyalari orqali xususiy kapitalni jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur⁴⁹.

Umuman olganda, O'zbekiston moliya bozorida ESG tamoyillarini joriy etish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, ularning institutsional chuqurligi yetarli emas. Bu holat barqaror moliyalashtirishni alohida loyihalar darajasidan davlat moliyaviy siyosatining tizimli elementiga aylantirish zarurligini ko'rsatadi.

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA ESG YONDASHUVI VA MOLIYA BOZORI TRANSFORMATSIYASI

Shomansurova Zilola

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti professori

Sobirjonov Ozodbek Otabekovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi

⁴⁷ IMF (2022). *Fiscal Policies to Address Climate Change*. <https://www.imf.org/en/Publications/Staff-Climate-Notes/Issues/2022/06/15/Fiscal-Policies-to-Address-Climate-Change-518332>

⁴⁸ AIFC Green Finance Centre (2024). Green bonds on Tashkent Stock Exchange. <https://aifc.kz/news/with-support-from-aifc-green-finance-centre-the-first-green-bonds-were-issued-on-the-tashkent-stock-exchange/>

⁴⁹ OECD (2023). *Financing Uzbekistan's Green Transition*. https://api.mf.uz/media/document_files/OECD_report_Financing_Uzbekistans_Green_Transition.pdf

Annotasiya. Ushbu tezisdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasidagi dolzarb muammolar va farmonda belgilangan maqsadlar bayon qilingan. Shu bilan uning yangilangan farmondagi o'zgarishlar, maqsadlar va monitoring tizimi tushuntirib otilgan. Strategiyada ESG tamoyillarining o'rni ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: "O'zbekiston-2030" strategiyasi, "svetafor" tizimi, moliya bozori, Xorijiy investitsiyalar, ESG tamoyillari, Islom moliyasi.

Bugungi kunda mamlakatimiz rivojlanib borar ekan xalqimiz ham shu qatorda zamonaviy turmsh tarzini yaratib berilishini davlatdan umid qiladi. Shu bois har bir sohani qamrab olgan keng ko'lamli islohotlar o'tkazish zarur edi. Bu maqsadlarni bajarish uchun 2023-yil 11-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni qabul qilindi. Bu farmon shunchaki bir hujjat emas edi, balki mamlakatimiz barcha rivojlantirish sohalarini qamrab olgan ulkan yo'l xaritasi hisoblanadi. Ushbu strategiyada yurtimizni daromadi o'rtachadan yuqori davlatlar qatoriga qo'shish, ijtimoiy sohani xalqaro talablarga to'la javob beradigan standartlarda tashkil etish, moliya bozorini rivojlantirish, ekologiyani yaxshilash, mamlakatimizning suvereniteti va xavfsizligini kafolatini taminlash kabi maqsadlar belgilangan. Ammo farmon qabul qilingan kundan hozirgi kunga qadar iqtisodiy, siyosiy va xalqaro o'zgarishlar tufayli ko'pgina talablar o'zgarib ketdi va farmon 2026-yil 17-fevral kuni oz kuchini yo'qotdi. Shu kunning o'zidayoq O'zbekiston Respublikasi prezidentining PF-21-sonli "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi yangi farmoni qabul qilindi. Yangi farmonning asosiy maqsadi shuki 2023-yildan to 2025-yilgacha o'tkazilgan islohotlarni sarhisob qilish va monitoring tizimini toliq raqamlashtirish boldi. Endi hamma rivojlanish korsatkichlari maxsus raqamli platformada "svetafor" tizimi orqali baholanadigan bo'ldi. Bunda yashil rang reja o'z vaqtida bajarilayotganini, sariq rang reja kechikishlar bilan bajarilayotganini va qizil rang reja ma'lum muammolar sababli to'xtab qolganini bildiradi.

O'rganilgan statistik ma'lumotlar asosida moliya bozorining quyudagi dolzarb muammolari o'rganildi: moliya bozorining likvidligi va raqobatdoshligining pastligi, bu milliy iqtisodiyotimizning rivojlanishiga tosqinlik qiladi; bank tizimidagi cheklovlar va davlat dominatligining yuqoriligi; qimmatli qog'ozlar bozori va kapital bozorimizning rivojlanmagani; aholining moliyaviy savodxonligi pastligi; islom moliya va investitsion moliya loyihalarining yetishmasligi; xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda infratuzilma va shaffoflik yetishmaydi. Ushbu muammolarni hal etish uchun strategiyada bir qancha maqsadlar bayon qilib o'tildi. Birinchidan bank va moliya tizimimizda yillik kreditlash korsatkichini 40 milliard dollarga yetkazish. Bu esa yoshlarning ko'pgina loyihalarini amalga oshirib iqtisodiyotni xilma-xilligiga olib keladi. Ikkinchidan aholida jamg'arma madaniyatini rivojlantirish orqali bank

omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish. Bu inflatsiyaga qarshi kurashishni osonlashtirib, ichki investitsiya resurslarini ko'payishiga olib keladi. Uchinchi erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar hajmini 8 milliard dollarga yetkazish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali umumiy investitsiyalarni 250 milliard dollarga yetkazish ko'zda tutilgan. To'rtinchidan alternativ moliyalashtirish manbalarini kengaytirish bilan davlat-xususiy sheriklik loyihalari orqali 30 milliard dollar investitsiya jalb qilish maqsad qilingan. Bularning barchasi svetafor tizimi orqali baholanib kelimoqda. Bu shunday qulaylik yaratadiki, ilgari hisobotlar oy, yil yakunida katta-katta hujjatlar jamlanmasi qilib topshirilgan bolsa, endi kim ishlamoqda kim uhlamoqda buni yaqqol korish mumkin. Muammoni tus olmasdan sariq chiroq yongan paytda aniqlab oldini olish imkoniyati mavjud.

ESG- bu ingliz tilidagi Environmental(atrof muhit), Social(ijtimoiy mas'uliyat) va Governance(korporativ boshqaruv) sozlarining qisqartmasidan olingan bo'lib O'zbekistonga endilikda kirib kelmoqda. Bu shuni anglatadiki, ma'lum bir kompaniya misolida oladigni bo'lsak, kompaniya faoliyati davomida atrof muhitni asrashi va yaratgan mahsuloti tabiatni ifloslantirmaydigan bolishi lozim. Shu asnoda o'z faoliyati davomida va natijasida ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilishi kerak. Bu degani qurilish kommunikatsiyasi bo'lsa o'z mijozlariga faqat yashash sharoitlaridan tashqari sog'liqni saqlash, ta'lim kabi sharoitlarini ham hisobga olishi kerak. Korporativ boshqaruv tizimida esa kompaniya shaffoflik va hisobotlar berishi, korrupsiyaga qarshi choralar korishi, o'z aksiyadorlar huquqlarini himoyalashi kerakdir.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida ko'pgina muammolarni, hujjatda aks etgan maqsad va vazifalarni sanab o'tgan edik. Ushbu muammolarni yechishda ESG tamoyillari asosiy "kalit" vazidasini otaydi. Chunki strategiyada yashil iqtisodiyotga o'tish belgilangan, bu Environmental tamoyiliga mos tushadi. 2025-yilning "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb nomlanishi ham bu sohani ancha rivojlanishiga olib keldi. Social tamoyili esa kompaniya hodimlari haq huquqlarini taminlash va aholining tolaqonli talablarini qondirish imkonini beradi. Governance tamoyili shunday ishlaydiki kompanyalarning shaffofligi, korrupsiyaga qarshi kurashi, korporativ boshqaruvga urg'u berishi va davlat korxonalarida ochiqlikni taminlanishi chet el korxonalarini uchun ishonchni kuchaytiradi, va investitsion jozibadorlikni oshiradi.

Xulosa qilib qilib aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonni qurish uchun "O'zbekiston-2030" strategiyasi asos bolib hizmat qiladi. Strategiyadagi islohotlarni esa ESG tamoyillarini barcha tashkilot va korxonalariga bosqichma bosqich joriy etish orqali amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga islom moliyasini ham joriy etish orqali ko'pgina islohotlarni jadal rivojlantirish mumkin. Vaholanki, har doim ham yangi tizimga ko'nikib ketish oson bo'lmaydi. Malum muddat inflatsiya yuqoriligi, raqobatning kuchliligi bir qancha qiyinchilik tug'dirishi mumkin, ammo bu qiyinchilik davr tugagandan keyin iqtisodiyot mustahkam, barqaror rivojlanishga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston 2030-strategiyasi to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son farmoni "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"

3. Madaminov, D. (2023). ESG tushunchasi, tamoyillari va standartlarining vujudga kelishi hamda ularning korporativ huquqqa ta'siri. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8112075>

4. <https://lex.uz/docs/-6600413> - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarining milliy ma'lumotlar bazasi

SANOAT KORXONALARIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI

Raxmonov Jur'atbek G'ulomqodirovich
TDIU, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi sharoitida sanoat korxonalarini yashil loyihalar orqali moliyalashtirish ekologik zaruriyat va iqtisodiy raqobatbardoshlikning strategik yo'li hisoblanadi. Yashil obligatsiyalar, kreditlar, ekofonlar va davlat subsidiyalari kabi moliyaviy vositalar korxonalarining barqaror faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. O'zbekistonda ushbu soha rivojlanishning dastlabki bosqichida bo'lib, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali sezilarli natijalarga erishish mumkin.

Kalit so'zlar: yashil moliya, sanoat korxonalarini, yashil loyihalar, moliyaviy mexanizmlar, ekologik transformatsiya, barqaror rivojlanish, davlat-xususiy sheriklik, yashil obligatsiyalar.

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarning keskinlashuvi dunyo miqyosida barqaror rivojlanish konsepsiyasini kun tartibining markaziga olib chiqmoqda ⁵⁰. Sanoat korxonalarini ushbu jarayonda alohida ahamiyatga ega, chunki global miqyosda karbon chiqindilarining sezilarli qismi aynan sanoat faoliyati natijasida yuzaga keladi. Shu sababli atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga yoki uni yaxshilashga qaratilgan ishlab chiqarish texnologiyalari, energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish masalasi ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tobora dolzarb bo'lib bormoqda. O'zbekistonda ham sanoat tarmog'ini yashil iqtisodiyot tamoyillariga moslashtirish yo'lida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu jarayonni moliyaviy jihatdan qo'llab-

⁵⁰ Bhattacharyya, R. (2022). Green finance for energy transition, climate action and sustainable development. *Green Finance*, 4(1), 1-35. <https://doi.org/10.3934/GF.2022001>